

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi  
Statistika agentligining  
2024- yil 30 - aprel dagi  
44 - sonli buyrug'iga  
Ilova

**Hisoblangan ish haqi miqdorlari asosida taqsimlangan xodimlar soni  
intervalli o'zgaruvchan qatorlarining tarkibiy o'rtacha miqdorlarini  
hisoblash bo'yicha uslubiy nizom**

“Hisoblangan ish haqi miqdorlari asosida taqsimlangan xodimlar soni intervalli o'zgaruvchan qatorlarining tarkibiy o'rtacha miqdorlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom” (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) hisoblangan ish haqi miqdorlari bo'yicha taqsimlangan xodimlar soni intervalli o'zgaruvchan qatorlarining tarkibiy o'rtacha miqdorlarini hisoblash tartibini belgilaydi (keyingi o'rinlarda – tarkibiy o'rtacha miqdorlar).

Ushbu Uslubiy nizom hisoblangan ish haqi miqdorlari asosida taqsimlangan xodimlar soni intervalli o'zgaruvchan qatorlarining tarkibiy o'rtacha miqdorlaridan statistika organlari tomonidan statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash va tahlil qilish bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Mazkur Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanadi:

**tarkibiy o'rtachalar** – statistik to'plam tuzilishini tavsiflash uchun qo'llanadigan maxsus ko'rsatkichlar;

**xodimlar soni taqsimlanishining intervalli o'zgaruvchan qatorlari** – hisoblangan ish haqi miqdorining intervallari va tegishli intervalga tushgan xodimlar soni o'rtasidagi muvofiqlikni teng intervalda guruhlangan jadvali;

**ish haqi modasi ( $M_0$ )** – hisoblangan ish haqi miqdori bo'yicha xodimlar sonining taqsimlanishi qatorida eng ko'p uchraydigan ish haqi miqdori;

**ish haqi medianasi ( $M_e$ )** – hisoblangan ish haqi miqdori bo'yicha xodimlar sonining taqsimlanishi qatorini teng ikkiga bo'luvchi ish haqi miqdorini ifodalab, taqsimlangan qatorni medianadan past va undan yuqori bo'lgan teng ikki qismga ajratadi;

**detsil ( $D$ )** – intervalli o'zgaruvchan qatorlar taqsimlanishining o'ndan bir qismi;

**kvintil ( $N$ )** – intervalli o'zgaruvchan qatorlar taqsimlanishining beshdan bir qismi;

**kvartil ( $R$ )** – intervalli o'zgaruvchan qatorlar taqsimlanishining to'rtadan bir qismi;

**tabaqalanish koeffitsiyenti ( $K$ )** – kam haq to'lanadigan xodimlar guruhlari nisbatan yuqori ish haqi to'lanadigan xodimlar guruhlari ish haqining ortiqcha miqdorini belgilaydi;

**chastotalar ( $f$ )** – mazkur hisoblangan ish haqi miqdori xodimlarning umumiy sonidan qanchasiga hisoblanganligini ifodalaydigan son;

**to'plangan chastotalar ( $S$ )** – chastotalarni (har bir intervalga to'g'ri keladigan xodimlar soni) eng kichik qiymatli intervaldan boshlab, qadamma-qadam yig'ish yo'li bilan hosil bo'ladi.

2. Xodimlar soni va hisoblangan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish manbalari bo'lib yuridik shaxslar va ularning tarkibiy tuzilmalari tomonidan taqdim etiladigan mehnat bo'yicha davlat statistika hisobotlari hisoblanadi.

3. Hisoblangan ish haqi miqdorlari bo'yicha xodimlar soni taqsimlangan o'rtacha ish haqi to'g'risida davlat statistika kuzatuv to'liq qamrab olish usulida amalga oshiriladi.

4. Tarkibiy o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblash xodimlar sonini hisoblangan ish haqi miqdori bo'yicha teng intervalli guruhlariga taqsimlash asosida amalga oshiriladi. Olingan guruhlar ish haqi miqdorining o'sib borish tartibida joylashtiriladi.

## 2-bob. Ish haqi modasini hisoblash

5. Ish haqi modasini hisoblash uchun ish haqi modasi joylashgan intervalni aniqlash kerak. Eng ko'p xodimlarni o'z ichiga oladigan hisoblangan ish haqi intervali modal hisoblanadi.

Ish haqi modasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$M_0 = x_{m_0} + i_{m_0} \times \frac{f_{m_0} - f_{m_0-1}}{(f_{m_0} - f_{m_0-1}) + (f_{m_0} - f_{m_0+1})}$$

bunda:

$M_0$  – ish haqi modasi;

$x_{m_0}$  – modal intervalning quyi chegarasi;

$i_{m_0}$  – modal interval miqdori;

$f_{m_0}$  – modal intervaldagi xodimlar soni;

$f_{m_0-1}$  – modaldan oldingi intervaldagi xodimlar soni;

$f_{m_0+1}$  – modaldan keyingi intervaldagi xodimlar soni.

Ish haqi modasini hisoblash bo'yicha shartli misol ushbu nizomning ilovasida keltirilgan.

## 3-bob. Ish haqi medianasini hisoblash

6. Ish haqi medianasini hisoblash uchun ish haqi medianasi joylashgan intervalni aniqlash kerak. Bunday interval yig'ilgan chastotasi (ish haqi hisoblangan xodimlarning umumiy soni) chastotalar yig'indisining yarmiga teng yoki undan ko'proqni tashkil etadigan interval bo'ladi.

Ish haqi medianasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$M_e = x_{m_e} + i_{m_e} \times \frac{\frac{\sum f_i}{2} - S_{m_e-1}}{f_{m_e}}$$

bunda:

$M_e$  – ish haqi medianasi;

$x_{m_e}$  – mediana intervalining quyi chegarasi;

$i_{m_e}$  – mediana intervali miqdori;

$\sum f_i$  – chastotalar yig'indisi (ish haqi hisoblangan xodimlarning umumiy soni);

$S_{m_e-1}$  – medianadan oldingi intervalning to‘plangan chastotalar yig‘indisi (xodimlarning yig‘ilgan soni);

$f_{m_e}$  – medial intervaldagi xodimlar soni.

Ish haqi medianasini hisoblash bo‘yicha shartli misol ushbu nizomning ilovasida keltirilgan.

#### 4-bob. Tabaqalanish koeffitsiyentlarini hisoblash

7. Hisoblangan ish haqi miqdorlari bo‘yicha xodimlar soni taqsimlanishining o‘ziga xos ko‘rsatkichlari sifatida intervalli o‘zgaruvchan qatorlarda ma’lum bir o‘rinni egallaydigan variantlar olinadi. Taqsimotni kvartillar choraklarga, kvintillar 5 ta qismga, detsillar 10 ta qismga va shu kabi boshqa qismlarga ajratadi.

8. Detsil tabaqalanish koeffitsiyenti nisbatan yuqori ish haqi oladigan xodimlarning 10 foiziga hisoblangan ish haqining eng kam miqdori nisbatan kam ish haqi oladigan xodimlarning 10 foiziga hisoblangan ish haqining maksimal darajasidan necha baravar ko‘p ekanligini ko‘rsatadi.

Detsil koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$KD_{10} = \frac{D_9}{D_1}$$

bunda:

$KD_{10}$  – detsil tabaqalanish koeffitsiyenti;

$D_9$  – to‘qqizinchi detsil;

$D_1$  – birinchi detsil.

Birinchi detsil nisbatan kam ish haqi to‘lanadigan 10 foiz xodimlarga hisoblangan ish haqining maksimal darajasini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$D_1 = x_{D_1} + i_{D_1} \times \frac{\frac{\sum f_i}{10} - S_{D_1-1}}{f_{D_1}}$$

bunda:

$x_{D_1}$  – xodimlar sonining o‘ninchi foizini o‘z ichiga olgan intervalning quyi chegarasi;

$i_{D_1}$  – xodimlar sonining o‘ninchi foizidan iborat interval qiymati;

$\sum f_i$  – chastotalar yig‘indisi (ish haqi hisoblangan xodimlarning umumiy

soni);

$S_{D_1-1}$  – xodimlar sonining o‘ninchi foizidan iborat bo‘lgan intervalgacha to‘plangan chastotalar yig‘indisi (xodimlar soni yig‘indisi);

$f_{D_1}$  – xodimlar sonining o‘ninchi foizidan iborat bo‘lgan interval chastotasi.

To‘qqizinchi detsil – nisbatan ko‘p ish haqi to‘lanadigan 10 foiz xodimlarga hisoblangan ish haqining minimal darajasini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$D_9 = x_{D_9} + i_{D_9} \times \frac{9 \times \frac{\sum f_i}{10} - S_{D_9-1}}{f_{D_9}}$$

bunda:

$x_{D_9}$  – xodimlar sonining to‘qsoninchi foizini o‘z ichiga olgan intervalning quyi chegarasi;

$i_{D_9}$  – xodimlar sonining to‘qsoninchi foizidan iborat interval qiymati;

$\sum f_i$  – chastotalar yig‘indisi (ish haqi hisoblangan xodimlarning umumiy soni);

$S_{D_9-1}$  – xodimlar sonining to‘qsoninchi foizidan iborat bo‘lgan intervalgacha to‘plangan chastotalar yig‘indisi (xodimlar soni yig‘indisi);

$f_{D_9}$  – xodimlar sonining to‘qsoninchi foizidan iborat bo‘lgan interval chastotasi.

9. Kvintil tabaqalanish koeffitsiyenti nisbatan yuqori ish haqi oladigan xodimlarning 20 foiziga hisoblangan ish haqining eng kam miqdori nisbatan kam ish haqi oladigan xodimlarning 20 foiziga hisoblangan ish haqining maksimal darajasidan necha baravar ko‘p ekanligini ko‘rsatadi.

Kvintil koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$KN_5 = \frac{N_4}{N_1}$$

bunda:

$KN_5$  – kvintil tabaqalanish koeffitsiyenti;

$N_4$  – to‘rtinchi kvintil;

$N_1$  – birinchi kvintil;

Birinchi kvintil nisbatan kam ish haqi to‘lanadigan 20 foiz xodimlarga hisoblangan ish haqining maksimal darajasini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$N_1 = x_{N_1} + i_{N_1} \times \frac{\frac{\sum f_i}{5} - S_{N_1-1}}{f_{N_1}}$$

bunda:

$x_{N_1}$  – xodimlar sonining yigirmanchi foizini o‘z ichiga olgan intervalning quyi chegarasi;

$i_{N_1}$  – xodimlar sonining yigirmanchi foizidan iborat interval qiymati;

$\sum f_i$  – chastotalar yig‘indisi (ish haqi hisoblangan xodimlarning umumiy soni);

$S_{N_1-1}$  – xodimlar sonining yigirmanchi foizidan iborat bo‘lgan intervalgacha to‘plangan chastotalar yig‘indisi (xodimlar soni yig‘indisi);

$f_{N_1}$  – xodimlar sonining yigirmanchi foizidan iborat bo‘lgan interval chastotasi.

To‘rtinchi kvintil – nisbatan ko‘p ish haqi to‘lanadigan 20 foiz xodimlarga hisoblangan ish haqining minimal darajasini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$N_4 = x_{N_4} + i_{N_4} \times \frac{4 \times \frac{\sum f_i}{5} - S_{N_4-1}}{f_{N_4}}$$

bunda:

$x_{N_4}$  – xodimlar sonining saksoninchi foizini o‘z ichiga olgan intervalning quyi chegarasi;

$i_{N_4}$  – xodimlar sonining saksoninchi foizidan iborat interval qiymati;

$\sum f_i$  – chastotalar yig‘indisi (ish haqi hisoblangan xodimlarning umumiy soni);

$S_{N_4-1}$  – xodimlar sonining saksoninchi foizidan iborat bo‘lgan intervalgacha to‘plangan chastotalar yig‘indisi (xodimlar soni yig‘indisi);

$f_{N_4}$  – xodimlar sonining saksoninchi foizidan iborat bo‘lgan interval chastotasi.

10. Kvartil tabaqalanish koeffitsiyenti nisbatan yuqori ish haqi oladigan xodimlarning 25 foiziga hisoblangan ish haqining eng kam miqdori nisbatan kam ish haqi oladigan xodimlarning 25 foiziga hisoblangan ish haqining maksimal darajasidan necha baravar ko‘p ekanligini ko‘rsatadi.

Kvartil tabaqalanish koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$KR_4 = \frac{R_3}{R_1}$$

bunda:

$KR_4$  – kvartilli tabaqalanish koeffitsiyenti;

$R_3$  – uchinchi kvartil;

$R_1$  – birinchi kvartil;

Birinchi kvartil nisbatan kam ish haqi to'lanadigan 25 foiz xodimlarga hisoblangan ish haqining maksimal darajasini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$R_1 = x_{R_1} + i_{R_1} \times \frac{\frac{\sum f_i}{4} - S_{R_1-1}}{f_{R_1}}$$

bunda:

$x_{R_1}$  – xodimlar sonining yigirma beshinchi foizini o'z ichiga olgan intervalning quyi chegarasi;

$i_{R_1}$  – xodimlar sonining yigirma beshinchi foizidan iborat interval qiymati;

$\sum f_i$  – chastotalar yig'indisi (ish haqi hisoblangan xodimlarning umumiy soni);

$S_{R_1-1}$  – xodimlar sonining yigirma beshinchi foizidan iborat bo'lgan intervalgacha to'plangan chastotalar yig'indisi (xodimlar soni yig'indisi);

$f_{R_1}$  – xodimlar sonining yigirma beshinchi foizidan iborat bo'lgan interval chastotasi.

Uchinchi kvartil – nisbatan ko'p ish haqi to'lanadigan 25 foiz xodimlarga hisoblangan ish haqining minimal darajasini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$R_3 = x_{R_3} + i_{R_3} \times \frac{3 \times \frac{\sum f_i}{4} - S_{R_3-1}}{f_{R_3}}$$

bunda:

$x_{R_3}$  – xodimlar sonining yetmish beshinchi foizini o'z ichiga olgan intervalning quyi chegarasi;

$i_{R_3}$  – xodimlar sonining yetmish beshinchi foizidan iborat interval qiymati;

$f_{R_3}$  – xodimlar sonining yetmish beshinchi foizidan iborat bo'lgan interval chastotasi;

$\sum f_i$  – chastotalar yig'indisi (ish haqi hisoblangan xodimlarning umumiy soni);

$S_{R_3-1}$  – xodimlar sonining yetmish beshinchi foizidan iborat bo'lgan intervalgacha to'plangan chastotalar yig'indisi (xodimlar soni yig'indisi).

## **5-bob. Yakunlovchi qoidalar**

11. Tarkibiy o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblashning asosiy maqsadi xodimlarning hisoblangan ish haqi darajasi bo'yicha tabaqalanishini aniqlashdir. Tarkibiy o'rtacha ko'rsatkichlar xodimlar sonini hisoblangan ish haqi miqdorini teng interval bilan guruhlariga taqsimlash asosida iqtisodiy faoliyat turlari, hududlar, jinslar bo'yicha hisoblanadi.

12. Mazkur Uslubiy nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida" Qonuni, O'RQ-707-son (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.08.2021-y., 03/21/707/0780-son).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21- maydagi PF-5723-son "Mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni.
5. "Mehnat statistikasi to'g'risida" Konvensiya (160). Jeneva, 1985- yil 5- iyun (Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh konferensiyasining 71-sessiyasida qabul qilingan).
6. 170-son Mehnat statistikasi bo'yicha tavsiyalar. Jeneva, 1985- yil 25- iyun (Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh konferensiyasining 71-sessiyasida qabul qilingan).
7. 2008- yil Milliy hisoblar tizimi, Yevropa Hamjamiyatlari komissiyasi, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon banki - Nyu-York, 2009- y.
8. Yo. Abdullayev. Statistika nazariyasi. -T.: "O'qituvchi", 2002- yil.

Hisoblangan ish haqi miqdorlari  
asosida taqsimlangan xodimlar soni  
intervalli o'zgaruvchan qatorlarining  
tarkibiy o'rtacha miqdorlarini  
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga  
ILOVA

**“Tashish va saqlash” iqtisodiy faoliyat turida hisoblangan ish haqi miqdorlari  
asosida taqsimlangan xodimlar soni intervalli o'zgaruvchan qatorlarining  
tarkibiy o'rtacha miqdorlarini va tabaqalanish koeffitsiyentlarini hisoblashga  
SHARTLI MISOL**

| Hisoblangan ish<br>haqi miqdori,<br>mehnatga haq<br>to'lashning eng<br>kam miqdori,<br>so'm ( $x$ ) | Chastota,<br>(Mazkur korxona, tashkilotda<br>mehnat daftarchalari mavjud<br>bo'lgan, oy davomida to'liq<br>ishlagan xodimlar soni), kishi<br>( $f_i$ ) | To'plangan<br>chastota,<br>kishi<br>( $S$ ) | Chastota<br>(ulushi),<br>%<br>( $m_i$ ) | To'plangan<br>chastota,<br>%<br>( $S_i$ ) |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------|-----------------------------------------|-------------------------------------------|
| 679330 gacha                                                                                        | 305                                                                                                                                                    | 305                                         | 0,5                                     | 0,5                                       |
| 679330 dan<br>1358660 gacha                                                                         | 4513                                                                                                                                                   | 4818                                        | 7,3                                     | 7,8                                       |
| 1358660 dan<br>2037990 gacha                                                                        | 7109                                                                                                                                                   | 11927                                       | 11,5                                    | 19,4                                      |
| 2037990 dan<br>2717320 gacha                                                                        | 6209                                                                                                                                                   | 18136                                       | 10,1                                    | 29,5                                      |
| 2717320 dan<br>3396650 gacha                                                                        | 7364                                                                                                                                                   | 25500                                       | 12,0                                    | 41,4                                      |
| 3396650 dan<br>4075980 gacha                                                                        | 7951                                                                                                                                                   | 33451                                       | 12,9                                    | 54,3                                      |
| 4075980 dan<br>4755310 gacha                                                                        | 8420                                                                                                                                                   | 41871                                       | 13,7                                    | 68,0                                      |
| 4755310 dan<br>5434640 gacha                                                                        | 4209                                                                                                                                                   | 46080                                       | 6,8                                     | 74,8                                      |
| 5434640 dan<br>6113970 gacha                                                                        | 2960                                                                                                                                                   | 49040                                       | 4,8                                     | 79,6                                      |
| 6113970 dan<br>6793300 gacha                                                                        | 2779                                                                                                                                                   | 51819                                       | 4,5                                     | 84,2                                      |
| 6793300 dan<br>7472630 gacha                                                                        | 2288                                                                                                                                                   | 54107                                       | 3,7                                     | 87,9                                      |
| 7472630 dan<br>8151960 gacha                                                                        | 1655                                                                                                                                                   | 55762                                       | 2,7                                     | 90,6                                      |
| 8151960 dan<br>8831290 gacha                                                                        | 1130                                                                                                                                                   | 56892                                       | 1,8                                     | 92,4                                      |
| 8831290 dan<br>9510620 gacha                                                                        | 912                                                                                                                                                    | 57804                                       | 1,5                                     | 93,9                                      |
| 9510620 dan<br>10189950 gacha                                                                       | 823                                                                                                                                                    | 58627                                       | 1,3                                     | 95,2                                      |
| 10189950 dan<br>yuqori                                                                              | 2948                                                                                                                                                   | 61575                                       | 4,8                                     | 100,0                                     |
| <b>Jami</b>                                                                                         | <b>61575</b>                                                                                                                                           | <b>x</b>                                    | <b>100,0</b>                            | <b>x</b>                                  |

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan holda statistik hisob-kitoblar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

### **1. Ish haqi modasini hisoblash:**

$$M_0 = x_{m_0} + i_{M_0} \times \frac{f_{m_0} - f_{m_0-1}}{(f_{m_0} - f_{m_0-1}) + (f_{m_0} - f_{m_0+1})};$$

$$M_0 = 4075980 + 679330 \times \frac{8420 - 7951}{(8420 - 7951) + (8420 - 4209)} \\ = 4144058 \text{ so'm.}$$

Ushbu usulda hisoblash natijasida, hisoblangan ish haqi miqdorlari bo'yicha xodimlar sonini taqsimlashda nisbatan ko'p uchraydigan ish haqi (moda) miqdori **4 144 058** so'mni tashkil qildi.

### **2. Ish haqi medianasini hisoblash:**

$$M_e = x_{m_e} + i_{M_e} \times \frac{\frac{\sum f_i}{2} - S_{m_e-1}}{f_{m_e}};$$

$$M_e = 3396650 + 679330 \times \frac{\frac{61575}{2} - 25500}{7951} = 3848412 \text{ so'm.}$$

Hisoblangan ish haqi miqdorlari bo'yicha xodimlar sonini taqsimlashda ish haqi medianasi hisobidan ko'rinadiki, xodimlarning yarmiga **3 848 412** so'mdan ko'p, qolgan yarmiga undan kam ish haqi hisoblangan.

### **3. Detsilni hisoblash:**

$$D_1 = x_{D_1} + i_{D_1} \times \frac{\frac{\sum f_i}{10} - S_{D_1-1}}{f_{D_1}}$$

$$D_1 = 1358660 + 679330 \times \frac{\frac{61575}{10} - 4818}{7109} = 1486661 \text{ so'm.}$$

$$D_9 = x_{D_9} + i_{D_9} \times \frac{9 \times \frac{\sum f_i}{10} - S_{D_9-1}}{f_{D_9}};$$

$$D_9 = 7472630 + 679330 \times \frac{9 \times \frac{61575}{10} - 54107}{1655} = 8010553 \text{ so'm.}$$

**Detsil tabaqalanish koeffitsiyentini hisoblash:**

$$KD_{10} = \frac{D_9}{D_1};$$

$$KD_{10} = \frac{8010553}{1486661} = 5,4$$

Detsil tabaqalanish koeffitsiyentini hisoblash natijasi nisbatan yuqori ish haqi oladigan xodimlarning 10 foiziga hisoblangan ish haqining eng kam miqdori nisbatan kam ish haqi oladigan xodimlarning 10 foiziga hisoblangan ish haqining maksimal darajasidan **5,4** baravar ko'p ekanligini ko'rsatmoqda.

**4. Kvintilni hisoblash:**

$$N_1 = x_{N_1} + i_{N_1} \times \frac{\frac{\sum f_i}{5} - S_{N_1-1}}{f_{N_1}};$$

$$N_1 = 2037990 + 679330 \times \frac{\frac{61575}{5} - 11927}{6209} = 2080441 \text{ so'm.}$$

$$N_4 = x_{N_4} + i_{N_4} \times \frac{4 \times \frac{\sum f_i}{5} - S_{N_4-1}}{f_{N_4}};$$

$$N_4 = 6113970 + 679330 \times \frac{4 \times \frac{61575}{5} - 49040}{2779} = 6167749 \text{ so'm.}$$

### Kvintil tabaqalanish koeffitsiyentini hisoblash:

$$KN_5 = \frac{N_4}{N_1}$$

$$KN_5 = \frac{6167749}{2080441} = 3,0$$

Kvintil tabaqalanish koeffitsiyentini hisoblash natijasi, nisbatan yuqori ish haqi oladigan xodimlarning 20 foiziga hisoblangan ish haqining eng kam miqdori nisbatan kam ish haqi oladigan xodimlarning 20 foiziga hisoblangan ish haqining maksimal darajasidan 3,0 baravar ko'p ekanligini ko'rsatdi.

### 5. Kvartilni hisoblash:

$$R_1 = x_{R_1} + i_{R_1} \times \frac{\frac{\sum f_i}{4} - S_{R_1-1}}{f_{R_1}};$$

$$R_1 = 2037990 + 679330 \times \frac{\frac{61575}{4} - 11927}{6209} = 2417289 \text{ so'm.}$$

$$R_3 = x_{R_3} + i_{R_3} \times \frac{3 \times \frac{\sum f_i}{4} - S_{R_3-1}}{f_{R_3}};$$

$$R_3 = 5434640 + 679330 \times \frac{3 \times \frac{61575}{4} - 46080}{2960} = 5457877 \text{ so'm.}$$

### Kvartil tabaqalanish koeffitsiyentini hisoblash:

$$KR_4 = \frac{R_3}{R_1}$$

$$KR_4 = \frac{5457877}{2417289} = 2,3$$

Kvartil tabaqalanish koeffitsiyentini hisoblash natijasidan ko'rinadiki, nisbatan yuqori ish haqi oladigan xodimlarning 25 foiziga hisoblangan ish haqining eng kam miqdori nisbatan kam ish haqi oladigan xodimlarning 25 foiziga hisoblangan ish haqining maksimal darajasidan 2,3 martaga ko'p.